

# **Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tushinish va tahlil qilish qobiliyatlarini takomillashtirish.**

Xalqaro Nordik Universiteti

Valiyeva Zuhraxon Vohidjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

email:zuhravaliyeva17@gmail.com

tel raqam:( 94 )015 01 16

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushinish ko'nikmalarini rivojlanganligi, o'qish va o'qitishni yaxshilashda davlat siyosati va tadqiqotga oid tahlillar haqida so'z boradi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida PIRLS xalqaro baholash tendentsiyalariga amal qilish, yosh avlodni faolligini oshirish, ta'limdagi izlanishi va kreativligini rivojlantirish yo'lidagi amalga oshirilgan ishlar yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о том, как международное исследование PIRLS улучшило навыки понимания прочитанного у учащихся начальной школы, а также о государственной политике и исследовательском анализе в улучшении чтения и преподавания. В системе образования Республики Узбекистан освещена работа, проводимая в соответствии с международными тенденциями оценки PIRLS, по повышению активности молодого поколения, развитию исследовательской и творческой активности в образовании.

**Abstract:** This article describes how the international PIRLS study improved the reading comprehension skills of elementary school students, as well as public policy and research analysis in improving reading and teaching. The work carried out in the education system of the Republic of Uzbekistan in accordance with the international PIRLS assessment trends to increase the activity of the young generation, development of research and creativity in education is highlighted.

**Kalit soʻzlar:** Boshlangʻich taʼlim, PIRLS, tadqiqot, taʼlim sifati, oʻquvchilar, baholash, natija, malaka oshirish, savodxonlik, metodika, prinsip, oʻqish, tushunish.

**Ключевые слова:** Начальное образование, ПИРЛС, исследование, качество образования, ученики, оценка, результат, повышение квалификации, грамотность, методика, принцип, чтение, понимание.

**Keywords:** Primary education, PIRLS, research, quality of education, pupils, assessment, outcome, professional development, literacy, methodology, principle, reading, comprehension.

**PIRLS** xalqaro tadqiqoti boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqib tushunish koʻnikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi maʼlumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, oʻqish va oʻqitishni yaxshilashda taʼlim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin boʻlgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS loyihasi Taʼlim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (**IEA- International Association for the Evaluation of Edukational Achievement**) shofeligida yaratilgan. Xalqaro tashkilotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts AQSH) Boston kolleji masʼul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburgdagi (Germaniya) maʼlumotlar markazida amalga oshiriladi.

PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study) – Bu turli mamlakatlarda boshlangʻich sinfda tahsil oluvchi oʻquvchi yoshlarning matni oʻqish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Tadqiqot davriy ravishda- har besh yilda bir marta oʻtkaziladi va hozirgacha ham besh marta ; 2001,2006,2011,2016,2021-yillarda oʻtkazilgan. PIRLS tadqiqoti faqatgina oʻquvchilar savodxonligini aniqlashga yoʻnaltirilgan topshiriqlar tizimidan iborat boʻlibgina qolmay, oʻz ichiga bu borada taʼlimga olib borilayotgan islohotlarni aniqlovchi soʻrovnomalarni ham oladi. Bunday soʻrovnomalalar maktab maʼmuriyati, oʻqituvchilar hamda ota-onalar yoki vasiylar oʻrtasida amalga oshiriladi. Oʻquvchilarning taʼlim olishdagi imkoniyatlari va sharoitlari haqidagi soʻrovnoma maʼlumotlarni taʼlim natijalarini talqin qilishda muhim roʻl oʻynaydi. PIRLS tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, dasturda erishilgan natijalar tahlili

hamda òtkazilgan sòrovnomalar ma'lumotlarining umumlashtirilishi dunyo bòylab o'qish savodxonligini oshirishdagi eng yaxshi tajribalarga doir qimmatli ma'lumotlarni tòplash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga kòra, òqish savodxonligini jamiyat tomonidan talab qiladigan va inson tomonidan qadrlanadigan, yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish , shuningdek matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida"gi chora-tadbirlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi ta'lim sifatini himoya qilish inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.<sup>1</sup> Bu markazning tashkil etilishi o'quvchilarining ta'limdagi yutuqlarini baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllantirilmoqda. Hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi " O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 qarori son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning 30ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kishiga erishish va xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish orqali o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishlarda fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.<sup>2</sup>

Jumladan, 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida xalqaro bilimlarni baholash dasturi ( Programme for international student assessment PISA) da ishtirok etish to'g'risida kelishuv imzolandi. O'zbekiston

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 2018-yil 8-dekabrda 997 -sonli qarori.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 sonli Farmoni

Respublikasi ta'lim tizimida bunday xalqaro baholash tendentsiyalariga amal qilish yosh avlodni faolligini oshirish, ularning ta'limdagi izlanishi va kreativligini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Mamlakatimiz o'quvchilari ilk bor 2021-yilda PIRLS-2021 xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi belgilangan edi. 70ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizning 4-sinf o'quvchilarining ishtirok etishlari belgilab qo'yilgan edi. Aynan shu yilda o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilari birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etilishini rejalashtirilganligini aytish o'rinlidir.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500ta, PIRLSda esa taxminan 1000ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mazmunlardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli o'quvchiga uncha tanish bo'lmaydi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatdagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishda qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayoning boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa davlatdagi o'qituvchilarning foydalanayotgan metodlaridan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalar o'tkazilganda o'quvchilarining so'rovnomasi orqali, ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oilada ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, maktabdagi o'quv faniga bo'lgan munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi.

O'qituvchilarning so'rovnomalari o'qituvchilar to'g'risida ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi.<sup>3</sup>

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlandiya mamlakatlari natijalarini qayt etgan bo'lsa, shular orasida singapurlik va gonkonglik o'quvchilar matni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq; undagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli otalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish va yozishga o'rgatganligi va maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

PIRLSda Rossiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

PIRLS testlaridan dars jarayonida foydalanilsa, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Misol tariqasida bir qancha PIRLS savollarini ko'rib chiqamiz:

### **1. Matni Tushunish va Xulosalar:**

**Matn:** *"Bir kuni bir kichkina bola, o'rmonda sayr qilishni xohlagan. U o'rmonda turli xil hayvonlarni ko'rdi: qushlarni uchayotgan, tulkini esa daraxtlar orasida yashirinib yurgan. Bola o'rmondan chiqishga qaror qildi, chunki u juda charchagan edi. Ammo, u darhol o'zining eng yaxshi do'sti, o'rdakni ko'rdi va uni kuzatib bordi."*

---

<sup>3</sup> Buriyevna, X. F., & Baxtiyorovich, T. B. (2023). ORGANIZING FORMS OF COURSES THROUGH INTERNATIONAL EDUCATIONAL PROGRAMS BASED ON THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 15, 33-34.

**Savol:** Qaysi sababdan bola o‘rmondan chiqishga qaror qildi?

- **A:** U o‘rmonda yangi do‘stlar topdi.
- **B:** U juda charchagan edi.
- **C:** U o‘rmondan hayvonlarni kuzatishni xohlagan.
- **D:** U o‘zining do‘sti o‘rdakni topdi.

**To‘g‘ri javob: B** (U juda charchagan edi)

**Izoh:** Matnda bola o‘rmondan chiqishga qaror qilganini aytib o‘tadi, chunki u juda charchagan.

## **2. Matndan Ma'lumotni Qidirish va Tahlil qilish:**

**Matn:** *"Bir kuni kichkina bir o‘g‘il bola choynakni yaxshi ko‘rdi. U har kuni uni stolga qo‘ydi, va har safar choynakdan choy ichganda, u xursand bo‘lib, doimo choynakni yana olib qo‘yishni unutmasdi. Bir kuni u choynakni ishlatishni unuta boshladi. Uni ko‘rgan onasi, 'Nega choynakni endi ishlatmaysan?' deb so‘radi."*

**Savol:** Nima uchun bola choynakni ishlatishni unuta boshladi?

- **A:** Choynakni ishlatishdan zerikdi.
- **B:** U choynakni qayerga qo‘yganini unuta boshladi.
- **C:** Bola boshqa narsalar bilan shug‘ullanib, choynakni ishlatishni unutdi.
- **D:** Onasi unga choynakni ishlatishni taqiqladi.

**To‘g‘ri javob: C** (Bola boshqa narsalar bilan shug‘ullanib, choynakni ishlatishni unutdi)

**Izoh:** Matnda bola choynakni ishlatishni unuta boshlagani, chunki boshqa narsalar bilan shug‘ullanib ketgani haqida gapirilgan.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 2018-yil 8-dekabrda 997 -sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda 5712 -sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712 sonli Farmoni
3. Buriyevna, X. F., & Baxtiyorovich, T. B. (2023). Organizing Forms Of Courses Through International Educational Programs Based On The Experience Of Developed Countries. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 15, 33-34.
4. “Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir” mavzusidagi xalqaro vebinar , Sidorova Galina Aleksandrova , Rossiya ta’lim akademiyasining ta’limini rivojlantirish strategiyasi instituti, ta’lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogik fanlar nomzodi. E-mail. [Centeroko@mail.ru](mailto:Centeroko@mail.ru)
5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash ( Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) . Ta’lim instituti huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil. 92b.
6. PIRLS 2011 International Report
7. PIRLS 2016 International Report
8. PIRLS 2021 tadqiqoti qamrov doirasida
9. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 48-53. 20.
10. Xodjamkulov Umid Negmatovich, & Xudoyqulova Fazilat Bo‘riyevna. (2021). O‘Qituvchi Shaxsining Fikr Almashuv Bilan Bog‘Liq Xususiyatlari. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 2(3), 107–114.